

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058


ISSUE 11

NOVEMBER

Journal of

RESEARCH and INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



IMFAKTOR
PAGES

2023

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 11-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-11

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-11

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 11 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-11>

Бош муҳаррир:

Салимов А.

– архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К.

– филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

- | | |
|---|--|
| 1. Закиров Х. | – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор |
| 2. Гулмуродов Р. | – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор |
| 3. Якубжон Хатамович Юлдашов | – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор, |
| 4. Камалова Дильфуза Энуровна | – филология ф.б.ф.д (PhD) |
| 5. Раззақов Шухрат Турсунович | – техника фанлари номзоди, доцент |
| 6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович | – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент |
| 7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич | – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент |
| 8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович | – филология ф.б.ф.д (PhD) |
| 9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна | – техника ф.б.ф.д (PhD) |
| 10. Шарипов Козимжон Комилжонович | – техника ф.б.ф.д (PhD) |
| 11. Норматов Ғайрат Алижанович | – техника ф.б.ф.д (PhD) |
| 12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна | – филология ф.б.ф.д (PhD) |
| 13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич | – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD) |
| 14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология | – филология ф.б.ф.д (PhD) |
| 15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна | – филология ф.б.ф.д (PhD) |
| 16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна | – филология фанлари доктори |

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “IMFAKTOR Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

XOLDOROVA Gulnoza Husniddinovna*Farg'ona davlat universiteti**tayanch doktoranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10225441>

NAVOIYNING KOMIL INSON TIMSOLINI YARATISH MAHORATI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada biz Alisher Navoiyning barcha asarlari uchun mushtarak bo'lgan asl g'oyani, ya'ni Navoiyning badiiy ijoddan ko'zlagan asosiy maqsadini yoritishga urindik. Adibning barcha asarlarida yaxlit bir g'oya mavjud: bu insonning Yaratgan tomon ma'naviy komillik sifatleri bilan ko'tarilib borishidir. Shoirning eng kichik asarlaridan tortib to ulug'vor "Xamsa"sining mohiyatida ham yagona shu g'oya talqiniga qayta-qayta duch kelaveramiz. Qolgan barcha go'zal fazilatlar tarannumi shu umumiy maslakning rivoji, anglanishi uchun xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning maqsadi komil insonni tarbiyalash ekanligini hisobga olsak, komil inson tarannumi sharq mumtoz adabiyotida adabiy an'anaga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Nazarimizda Alisher Navoiy asarlarining har birida komil inson g'oyasi tarannumi bor. Alisher Navoiyning badiiy ijoddan ko'zlagan maqsadi, timsollarning harakat strategiyasi, sujetning takomillashib borishi, xullas, adib asarlaridagi har bir element insondagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishiga shak-shubha yo'q.

Kalit so'zlar: adabiy an'ana, komil inson g'oyasi, mumtoz adabiyot, tasavvuf adabiyoti, avliyo va anbiyolar, xamsanavislik an'anasi, piri komil, ilohiy ishq

ОБРАЗ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА НАВОИ НАВЫК ТВОРЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы постарались осветить исходную идею, общую для всех произведений Алишера Навои, то есть главную цель художественного творчества Навои. Все произведения писателя содержат общую идею: это восхождение человека к Творцу, обладающего качествами духовного совершенства. От мельчайших произведений поэта до сути великолепной «Хамсы» мы неоднократно сталкиваемся с трактовкой этой единственной идеи. Воспевание всех других прекрасных качеств служит развитию и пониманию этой общей цели. Учитывая, что целью художественной литературы является воспитание совершенного человека, не будет преувеличением сказать, что гимн совершенному человеку стал литературной традицией в восточной классической литературе. На наш взгляд, каждое произведение Алишера Навои содержит гимн идее совершенного человека. Нет сомнения, что цель художественного творчества Алишера Навои, стратегия движения символов, совершенствование предмета, словом, каждый элемент в литературном произведении служит формированию духовно-нравственных ценностей в человеке.

Ключевые слова: литературная традиция, идея совершенного человека, классическая литература, суфийская литература, святые и пророки, традиция Хамсанави, пир кamil, божественная любовь.

THE SKILL OF CREATION IMAGE OF A PERFECT HUMAN BEING OF NAVOIY

ANNOTATION

In this article, we tried to highlight the original idea common to all Alisher Navoi's works, that is, Navoi's main goal of artistic creation. All of the writer's works contain a common idea: this is a person's ascension towards the Creator with the qualities of spiritual perfection. From the smallest works of the poet to the essence of the magnificent "Khamsa", we repeatedly come across the interpretation of this single idea. The chanting of all the other beautiful qualities serves for the development and understanding of this general purpose. Considering that the goal of fiction is to educate a perfect person, it is not an exaggeration to say that the hymn of a perfect person has become a literary tradition in Eastern classical literature. In our opinion, each of Alisher Navoi's works contains a hymn to the idea of a perfect human being. There is no doubt that Alisher Navoi's goal of artistic creation, the movement strategy of symbols, the improvement of the subject, in short, every element in the literary works serves to form spiritual and moral values in a person.

Key words: literary tradition, the idea of a perfect person, classic literature, Sufism literature, saints and prophets, the tradition of Hamsanavis, piri kamil, divine love

Hazrat Navoiyning barcha asarlarida yaxlit bir g'oya mavjud: bu insonning Yaratgan tomon ma'naviy komillik sifatleri bilan ko'tarilib borishi – urujdir. Adibning eng kichik asarlaridan tortib to ulug' "Xamsa"ning mohiyatida ham yagona shu g'oya talqiniga qayta-qayta duch kelaveramiz. Qolgan barcha go'zal fazilatlar tarannumi shu umumiy maslakning rivoji, anglanishi uchun xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning maqsadi komil insonni tarbiyalash ekanligini hisobga olsak, komil inson tarannumi sharq mumtoz adabiyotida adabiy an'anaga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiy an'ana – o'tmish adabiyoti to'plagan ijodiy tajribalar qaymog'i, davrlar o'tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qismi. [10, 12] Mazkur maqolada biz Alisher Navoiyning barcha asarlari uchun mushtarak bo'lgan asl g'oyani, ya'ni Navoiyning badiiy ijoddan ko'zlagan asosiy maqsadini yoritishga urindik.

Nazarimizda Alisher Navoiy asarlarining har birida komil inson g'oyasi tarannumi bor. Komillik sifati tasavvuf ilmidan ham, mumtoz adabiyot ilmidan ham atroflicha o'rganilgan. Alisher Navoiyning badiiy ijoddan ko'zlagan maqsadi, timsollarning harakat strategiyasi, sujetning takomillashib borishi, xullas, adib asarlaridagi har bir element insondagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishiga shak-shubha yo'q.

Alisher Navoiy asarlariga bir paytlar chuqur o'rganilmay, faqat davr talabi bilan qilingan ishlardagi noxolis munosabat haqida akademik Oybek haqli ravishda shunday yozadi: "Navoiy – demokrat, Navoiy – mehnatkash ommalar manfaatining himoyachisi, Navoiy – ateist, podshohlar, sultonlarning ashaddiy dushmani, Navoiy revolyutsioner va hokazo noto'g'ri tasdiqlashlar ulug' shoirning merosini o'rganishga zarar beradi... Uning asarlarini atroflicha, chuqur tekshirmasdan, tekshiruvchi oldindan belgilab qo'ygan maqsadlarini isbot qilish uchun ataylab misralar qidirsak, yoki tasodifiy yulib olingan joylarga vosita qilinsa, shoirdan xohlagan figurani – ...ateist, revolyutsioner va hokazoni yasash qiyin emas. Bu – juda zararli. Shoir ideallashtirish yoki asrlashtirish (modernizatsiya)ga mutlaqo muhtoj emas" [7, B.227-228]

Aslida Alisher Navoiy ijodi butun insoniyat uchun faqat va faqat ezgulikka, yaxshilikka, bunyodkorlikka undovchi bongdir. Uning mohiyati har qanday zamonasozlikdan, mafkurabozlikdan xoli. Navoiy ijodining hali-hanuz dolzarbligining tub negizi ham shunda.

Muslihiddin Muhiddinov “Komil inson – adabiyot ideali” asarida “Komil inson xususiyatlari bilan anbiyo va avliyolarning xususiyatlari orasida oʻxshashlik bor. Ammo tasavvuf ahli bir ovozdanda komillikning oliy namunasi – komil inson timsoli deb hazrati Muhammad rasulullohni tilga oladilar. Agar hazrati Rasululloh oliy darajadagi komillik namunasi boʻlsa, valiylar undan keyin turuvchilardir. Valiylarning ham bir necha zinalardan iborat martabalari bor, qutbdan abrovgacha darajalari maʼlum. Shunday qilib, shayxi murshidlar, karomatli pirlar, orif va solihlar, darveshsoʻfiylar ham kamolot yoʻlidagi martabalarni egallagan kishilardir” [6, B.22].

Navoiyshunos olim ulugʻ xamsanavislarning birinchi dostonlaridagi komil inson talqini va tasvirida har bir adibga xos umumiy va xususiy, mushtarak va farqli jihatlarini tadqiq qilib, komil inson sifatida anbiyo va avliyolarni nazarda tutadi. Chindan ham ulardagi komillik sifatleri Navoiyda ham, Navoiydan avvalgi xamsanavislarda ham atroflicha talqin etilgan.

N. Komilov «Timsollar timsoli» maqolasida va tasavvufga oid qadimiy manbalarga suyanib, qayd qiladiki, tasavvuf ahli nashrida komil inson «zohiriy va botiniy ilmlarni toʻliq egallagan, koʻngil oynasi musaffo boʻlgan, gʻayb asroridan xabar beruvchi kishidir» [3, B.101].

Tasavvuf adabiyotining yetuk bilimdoni, navoiyshunos olim N.Komilovning yuqoridagi fikrlariga tayansak, “Hayrat ul-abror”da ham komil inson gʻoyasi ustuvor ekanligini koʻramiz. Bu azaliy gʻoya Alisher Navoiyning keying dostonlarida ham takomillashib borgan. Demak, qaysidir maʼnoda “Xamsa”dagi har bir doston bir gʻoyani tadrijiy jihatdan kuchaytirib, mustahkamlashga ximzat qilgan.

N.Komilovning yozishicha, Suhaylo Farhodning tariqat yoʻlidagi birinchi piridir. Suqrot piri komil timsoli boʻlib, usiz Farhodning oʻz maqsadiga erishishi mukin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb taʼriflaydi. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni oʻz farzandiday eʼzozlaydi. Chunki bu yigit siymosida u oʻz suluk(yoʻl)ining davomini koʻrgan edi [11, B.110].

Farhoddek mehnatsevar va ijodkor, komil inson obrazini yaratgan Navoiyning oʻzi ham undan ilhomlanib, qalamining Farhod teshasi kabi oʻtkir va unumli boʻlishini orzu qiladi:

*Bu qon ishqida teshang xora rez et,
Ani Farhod toshi birla tez et [5, B.348].*

Gʻazal mulkining sultoni Alisher Navoiy oʻz mahoratini komil inson obrazini yaratishda ham koʻrsata olgan. Shoir oʻzi eʼtirof etgan “shavq dostoni”(“Farhod va Shirin”) va “yigʻlay-yigʻlay tugatgan, dard dostoni”(“Layli va Majnun”)dagi bosh qahramonlar haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. “Xamsa” dostonlariga xos eng muhim xususiyatlardan yana biri, qahramonlar ruhiyatini aks ettirishda tasvirni quyuqlashtirib, darajama-daraja, tadrijiy ravishda kuchaytirib boriladi. Farhod va Qays obrazi badiiy jihatdan juda mukammal ishlangan. Quyida bu ikki obrazni tutashtirib turuvchi oʻxshash jihatlar haqida fikr yuritamiz.

Har ikki qahramon ham badavlat oilaning farzandi. Har ikki qahramonning otalari farzandsizlikdan qattiq iztirob chekar, oʻgʻil koʻrishni istar edilar. Chin xoqonining bu holati “Farhod va Shirin” dostonida quyidagicha ifodalangan:

*Ne chekkay koʻkka boshni tojdore,
Yoʻq ersa bir dur andin yodgore.
Valaddur ul duru volid sadafdur,
Sadaf, yaʼni atou dur xalafdur [1, B.61]*

“Layli va Majnun” dostonida ham Qaysning otasi - Bani Omar qabilasi boshligʻi farzandsiz edi. Bu dostonida quyidagicha tasvirlanadi:

*Moli ko 'p-u umri sust payvand,
Farzandig 'a erdi orzumand [8, B.306].*

Har ikki qahramon ham tug'ilgan paytidayoq ishq sohibi bo'lmog'i oldindan belgilab qo'yilgan edi. "Farhod va Shirin"da Farhodning tug'ilishi bilan bog'liq holat quyidagicha bayon qilinadi:

*Shabistonida tug 'di bir yangi oy,
Yangi oy yo 'qki, mehri olam oroy.
Yuzunda ishq asrori yozilg 'on,
Ichinda dard ta 'vizi qozilg 'on [1, B.64].*

Qaysda ham shunday jihatlar yoshligidanoq sezilgan edi. Navoiy Majnunning "qon yutmoqdin sho 'rish va ishq doyasidin parvarish topqonini" yozadi. [8, B.306].

Har ikki qahramon ham tug'ma ishq egasi va bunday ishq egalariga qo'yiladigan talablardan biri barkamollik kasb etish. Bu o'rinda komil inson g'oyasi mujassamlashgan Farhodning uch oyda savodi chiqqanligi va bir yilda Qur'onni xatm qilganligini eslash kifoya.

*Qayu ilmiki yo 'q andin nihonroq,
Aning qoshida yo 'q andin ayonroq
Bo 'lub Yunonda hikmat girdi oning
Arastu bir kichik shogirdi oning [1, B.69].*

Bani omar qabilasi boshlig'ining o'g'li Qaysni to'rt-besh yoshidan kekxa bir murabbiyga topshiradi. Bola ulg'ayib, maktabga borish vaqti keldi. Ammo bu qabilada maktab yo'qligidan Qaysni boshqa qabiladagi (hay qabilasi boshlig'i bu maktabni o'z qizi Layli uchun tashkil etgan bo'lib, bolalar shu maktabda o'qiganlar) maktabga berdilar. Qays o'qishda zehni o'tkirligini ko'rsatdi, oz vaqtda maktabda yagona bo'lib qoldi [9, B.104].

Ko'rib turganimizdek, har ikki qahramon fahm-u farosatda, fasohatda tengi yo'qligi bilan boshqalardan ajralib turgan.

Lekin qahramonlar ulg'aygani sari ularda ilohiy ishq uchqunlari yana-da yorqinroq ko'rinish boshlaydi. Har ikki qahramon ham "majnunlik" sifatiga ega. Bu fikrimizni "Farhod va Shirin" dostonining 41-bobidagi quyidagi baytlarni tahlil qilish orqali isbotlaymiz.

*Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah?
Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.
Dedi: nedur sanga olamda pesha?
Dedi: ishq aro majnunlik hamisha [1, B.322].*

"Layli va Majnun" dostonida esa Qaysning "majnunlik" sifati xalq tilidan ko'rsatiladi.

*"Layli, Layli!" – debon chekib un,
El deb, "Majnundir, ushbu majnun!" [8, B.308]*

Har ikki qahramonning bunday ruhiy holati yaqinlarini befarq qoldirmaydi. Otalar o'g'illarining bu zabun holatidan qutqarmoq chorasini izlaydilar. "Farhod va Shirin" dostonining 17-bobida Chin xoqonining Farhodga atab to'rt faslga moslab qasr qurdirishi haqida so'z boradi. Farhod Boniy, Moniy va Qoran kabi ustozlaridan ko'ngilga ilohiy ishq binosini qurish va nafsoniy istaklarni parchalashni o'rgandi.

“Layli va Majnun” dostonining 20-bobida esa Qaysning otasi o‘g‘lini Ka’ba ziyoratiga olib boradi. Ka’ba ziyoratiga borgan Qays Ollohga shunday iltijo qiladi:

*Ko‘nglum g‘am ichra to‘q ayla, yo rab!
Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo rab!
Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil [8, B.311].*

Farhod tog‘- u toshda Xusrav yollagan hiylakor kampirning hiylasi tufayli halok bo‘ladi. Shirin uning jasadi ustida jon beradi.

Majnun esa Layli bilan birgalikda halok bo‘ladi. Laylining vasiyatiga ko‘ra ularni bir kafanga o‘rab bir qabrga qo‘yadilar:

*Bir qabrga qo‘ydilar ikavni
Jonsiz kelin-u o‘luk kuyavni [8, B.311].*

Navoiy devonlari haqidagi tadqiqotlarda g‘azallar bir-birini mazmunan boyitib borganligi haqida ilmiy dalillar uchraydi. Navoiy ijodiyotining barkamolligi aynan shu omil bilan bog‘liq desak, xato bo‘lmaydi. Yuqoridagi baytlar mazmunidan ham anglash mumkinki, Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibiga kirgan barcha dostonlarida ham shu an’anaga to‘liq amal qilgan Mazmunan bir-birini boyitish an’anasi “Xamsa” qahramonlariga ham xos ekanligini tasvir va talqindagi umumiylik, mushtaraklik, sujetdagi ayrim tasvirlar dalillab turibdi.

Navoiy Farhod obrazini realistic va romantik dalillar bilan boyitadi. Inson o‘zlikdan qutulmay, yaratganga yetolmaydi. Shuning uchun har ikki dostonida ham ilohiy ishq buy o‘ldagi vosita sifatida ko‘rsatilgan. Aslida Farhod va Majnun ko‘zlagan manzil bir. Komil inson timsoli deb tan olingan Farhod aslida Majnun bo‘lishni, Majnundek bo‘lishni orzu qiladi. Bu uning Xusrav bilan dialogida aniq ochib beriladi.

Hazrat Navoiyning badiiy maqsadi ham shu edi. Ishqiy barkamollik sifatlarini yana-da to‘ldirib, “Xamsa”ning uchinchi dostonini yaratadi. Navoiy har ikki qahramonga ham ilohiy ishq kamoloti libosini kiydirgan. Bu esa adibning barcha asarlarida komil inson timsolini yaratish bosh g‘oyasi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik, 8-jild. T.: 1991
2. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: Shamsiyev P., Ibrohimov S.1973
3. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. «Камалак», Тошкент. 1991 и., 101-б. []
4. Абдуллаев В. Узбек адабиёти тарихи. - Тошкент: Укитувчи, 1964
5. Маллаев Н.Ўзбек адабиёти тарихи/[Матн]:Тошкент:Kafolat print company.2021.
6. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали – Т.: Маънавият, 2005.
7. Ойбек М.Т. Мукаммал асарлар тўплами 19 томлик: 13-том. – Тошкент: Фан, 1979.
8. Qayumov A. Asarlar, 3-jild, Toshkent:,Mumtoz so‘z, 2009
9. Qayumov A. Alisher Navoiy, T.: 1991.
10. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr.2010
- 11.Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik.- T.: “Tamaddun”, 2019.
12. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. Toshkent: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2006.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 11-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-11

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-11

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz